

O‘QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH TIZIMI ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hamмамizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlaktni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu- ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bo‘g‘liq.

Sh.Mirziyoyev

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
Andijon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nafisa Akbayeva
Pedagogika tarbiya fani o‘qituvchisi yo‘nalishi
101-gurux talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro baholash dastur talablari va ta’lim tizimiga joriy etish tamoyillari haqida so‘z yuritish bilan birga, PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlarining muhim belgilari xorijiy olimlar fikrlariga, ilmiy-tadqiqot ishlariga tayangan holda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, STEAM ta’lim tizimi, integratsiya, xalqaro baxolash, ta’lim tizimi

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bizga ma’lumki taraqqiyot yetgan mamlakatlar ta’limni rivojlantirish birinchi vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, yani uchinchi renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Yana bir ta’limga qaratilgan nutqida: “Frazandlarimiz ,maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘uladi. Shunday ekan, yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni quvvatlaydi.” – deya barchamizni ta’lim islohoti yo‘lida izchil izlanishlar olib borishga undaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 997-sonli qaroriga muvofiq “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baolash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori asosida PIPLS TIMSS va PISA xalqaro tadqiqotlarni o‘zbekistonda joriy etish maqsadida ta’lim sifatini baxolash bo‘yicha Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy Markazi tashkil etildi.

Ta’lim sifatini nazorat qilish tashkilotlari o‘rtasida imzolangan kelishuv hujjatlariga binoan O‘zbekiston Xalqaro o‘quvchilarni baxolash PISA, PIRLS, TIMSS da ishtirok etihsga kirshildi.

TIMSS (Trend in international mathematics and science study) 4 – 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlarni o‘zlashtirish darjasini baxolash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot 4 yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baxolash dasturida 4-8-sinf o‘quvchialrining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darjasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, o’quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o’qituvchilar salohiyati o’rganiladi.

Bu dastur o’zining 1-tadqiqotni 1995-yilda boshlagan, 2023-yilda bo’lib o’tgan tadqiqotda O’zbekiston ham qatnashdi.

PIRLS- xalqaro baxolash dasturi 4-sinf o’quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baxolaydigan TIMSS dasturini to’ldirishga yo’naltirilgan.

Bu tadqiqot boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qib tushunish ko’nikmasini qay darajada rivojlanganligi haqida ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o’zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vazifalarda qo’llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

PIRLS tadqiqotlarida O’zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o’quvchilar bilimni xalqaro talablarga olib chiqishga xizmat qiladi. PIRLS asosiy tadqiqotni qog’oz shaklida o’tkaziladi va unda 4-sinf o’quvchilari nutqni o’qib tushunish darajalarini baholovchi test topshirig’ini bajarishadi. Bunda ular maktab va uy sharoitlari to’grisida, ta’limga qiziqishlari haqida o’z fikrlarini bildiruvchi o’quvchi so’rovnomasini to’ldiradilar.

PISA-xalqaro baholash ilmiy dasturida 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlarni savodxonlik darajasini baholash nazarda tutilgan.

Shu o’rinda “Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishning nima afzalliklari bor?” degan savol tug’uladi.

- Tadqiqotlardan keyin olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifatini va uning xalqaro standartlarini hisobga olingan holda egallangan o’rni to’grisida xulosalar chiqaradi;(va ta’lim sifatini yanada oshirish imkonini)
- Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishga qo’llaniladi;
- Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sofati o’tkazishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi;
- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baxolash tizimini yaratish imkonini beradi;

Biz o’quvchilarni bilim daradarligini oshirish maqsadida yana bir yo’nalish STEAM ta’limi tizimini O’zbekiston ta’lim tizimimizga qo’llashni joriy etdik.

STEAM ta’lim tizimi Amerikada ishlab chiqilgan.

STEAM ta’lim tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Ushbu tizim beshta fanni o’zida mujassamlashtiradi. Ushbu qisqartmani yoysa, quyidagilarni olamiz:

- S – science (tabiiy fanlar)
- T – technology (texnologiya)
- E – engeneering (muhandislik)
- A – art (san’at)
- M – math (matemetika)

Uning asosiy g’oyasi shundan iboratki, bolalar turli xil mavzularni o’rganishi mobaynida ham miyani, ham qo’llarni ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o’zlari “uqib” oladilar.

STEAM ta’lim tizimini o’zlashtirgan bolalar bilimga ega bo’ladilar va darhol undan foydalanishni o’rganadilar. Ular o’sib ulg’ayganlaridan so’ng va hayotiy muammolarga duch kelganda, murakkab, global masalalarni turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz ta’lim sifatini baxolash xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalarga asoslanib, mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartni hisobga olgan holda egallagan o’rni to’g’risida xulosalar chiqaradi.

O’quvchilarni xalqaro PISA, PIPLS, TIMS baholashning asl mohiyati o’quvchilarda tafakkur uyg’oqligi uning ixtirochi, ijodkorlika o’rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 8-dekabrda 997 qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi 2019-yil 29-aprelda PF 5217 sonli Farmoni